

Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asarida axloqiy tamoyillarning namoyon bo‘lishi

Oqilov Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasi 3-kurs talabasi

oqilovahrorjon@gmail.com

Xoja Ahmad, toat qil,

Umring bilmam necha yil.

Asling olsang, ob-u gil,

Yana gilga ketaro

Ahmad Yassaviy

Annotatsiya Mazkur maqolada turkiy adabiyotning zabardast vakili, mashhur mutasavvif, yassaviya tariqatining asoschisi, odob-axloq dengizi Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asarida aks etgan axloqiy tamoyillar va me’yorlar bayon etiladi.

Kalit so‘z: Xoja Ahmad yassaviy, etika, gumanizm, erkparvarlik, tinchlikparvarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik, altruism

Kirish.

Ahmad Yassaviy 1105-yilda Sayramda dunyoga kelgan. Bu hudud hozirgi Qozog‘iston Respublikasining Turkiston viloyatiga to‘g‘ri keladi. Xoja Ahmad Yassaviy islomiy ta’limotning uchdan birini o‘zida mujassam qilgan tasavvuf yo‘nalishining yetuk namoyondasi hisoblanadi. Xoja Ahmad Yassaviy o‘z faoliyati bo‘lmish so‘fiylikda yangi bir tariqat yassaviya tariqatiga asos soldi. Bu tariqatning

mohiyati Alloh irodasiga boricha bo‘ysunish hisoblanadi. Bu tariqatda asosiy urg‘u riyozat orqali ichki poklanishga erishish, zohidlik bilan taqvo yo‘lini mahkam tutishga qaratilgan. Yassaviya tariqatining asosiy shiori - *shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqat bo’lmaydi*. Bu ta’limot avvalo Qur’oni Karimga keyin hadisi shariflarga tayangan holda ishlab chiqilgan. Yassaviya tariqatining asosiy mazmuni unga rioya qilish mezonlari “Devoni hikmat” ya’ni “Hikmatlar devoni” orqali belgilanadi. Ushbu asarning muallifi tariqat yo‘lboshchisi Ahmad Yassaviy hisoblanadi.

Asosiy qism.

Ahmad Yassaviy o‘z ijodini chig‘atoy tilida qilgan. “Xoja Ahmad Yassaviyning bizgacha yetib kelgan asari “Devoni hikmat” bo‘lib, “Devoni hikmat”da ilohiy ishq va oshiqlik, Haqqa yetish sirlari, Zokir va uning ma’naviy martabasi, ma’rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari nihoyatda samimiy va ta’sirli ohanglarda yoritib berilgan. “Devoni hikmat”dagi barcha she’rlar ham Yassaviyga mansub emas. Unga Yassaviy izdoshlarining ijod namunalari ham kiritilgan”¹. “Devoni hikmat” asaridagi axloqiy tamoyillar tahlili avvalo diniy mezonlar asosida baholanadi. Shu bilan birgalikda undagi masalalar metafizik hodisalarga ishora qiladi. “Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”i dunyoga kelishi bilan turkiy xalqlar o‘zining mustaqil tariqat kitobiga, tom ma’nosиila Ma’rifat, Haqiqat, Ruhoniyat qomusiga sohib millat o‘larоq e’tirof etilgan”- deydi professor Ibrohim Haqqul. Asardagi insonparvarlik va insonlar o‘rtasidagi munosabatlar ulardagi ikki tomonlama ishonch va halollikning targ‘ibotiga yo‘naltirilgan. Quyidagi misralarni bunga dalil sifatida keltirish mumkin:

* * *

*Manman, qulman degonlar, yer yuziga kelgonlar,
Harom-harish yegonlar bir-bir javob berg‘usi.*

¹[100_wHIKOO1.pdf \(modernscience.uz\)](http://100_wHIKOO1.pdf (modernscience.uz))

* * *

Yuqoridagi misraning birinchi qismida Ahmad Yassaviy dunyo hisob-kitobini, bu dunyoning muvaqqat va o‘tkinchi ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Ikkinchi misrada esa muomalalarda halollik qilgan insonlar mukofotini olishlari eslatib o‘tilsa, g‘irrom va yolg‘on orqali mol-u mulk to‘plaganlar, ahdiga vafo qilmay harom ishlardan qaytmagan kimsalarning ahvoli o‘g‘ir bo‘lib ularga, albatta, jazo muqarrarligidan ogohlantirishlar beriladi. Ahmad Yassaviyning hayotiy faoliyati “Devoni hikmat” bilan uyg‘unlashgan bo‘lib muallifning o‘zi ham umri davomida miskinlarga yordamchi bo‘lganligi, dunyo molini toplashga emas, balki uni nochorlarga, yetimlarga ehson qilib yuborgan jo‘mard insonligi bilan xotirlanadi. Bunga quyidagi parcha isbot bo‘la oladi:

* * *

*G‘aniy aytur: “Rizong uchun xayr qilduq,
Taom berib yaxshilardin duo olduq,
Faqir, miskin, yetimlarni holin so‘rduq...
“Yig‘lab yurgil, ko‘z yoshini riyosi yo‘q*

* * *

Birinchi va ikkinchi misrada muallif Alloh rizosi yo‘lida qilingan xayr-ehson sohibini g‘aniy deb ataydi. Arab tilida "غنى" so‘zi "boy" degan ma’noni anglatadi. Ya’ni muallif aytnoqchiki, inson faqat o‘zini o‘ylab yashashdan tiyilmog‘i darkor, boshqalarning musibatini o‘zinikidek qabul qilishi juvonmardlik ko‘rsatishi uning mol-u mulkni o‘zi uchun to‘plagan odamdan ko‘ra boy deb atalishga munosib darajaga ko‘taradi. Shu o‘rinda Yassaviyga xos kamtarlikni ham ko‘rishimiz mumkin. Sababi, huddi shu sifatlar uning o‘ziga tegishli bo‘lgan. Biroq muallif bu misralarda xokisor tutadi. Shuningdek elga yordamchi bo‘lish uchun quyidagi xitoblar qilinadi:

* * *

*Erga ilging bergil, joning fido qilg‘il,
Yurma yiroq, bo ‘lma nohaq, beri kelgil.*

* * *

Ahmad Yassaviy hayoti davomida boylik ortidan quvmagan va uni o‘zidan uzoqlashtira olgan kishilardandir. Aflatundan so‘rashibdi: Nega donolik va boylik birlashmaydi? U dedi: Mukammallik hurmati uchun”². Mehnatsevarlik tamoyili esa zohidlik bilan birgalikda oriflik maqomi uchun tinimsiz harakat bilan baholanadi. Bu ma’noga dalolat qiluvchi ko‘plab matnlar kelgan bo‘lib bulardan misollar:

** *

Mehnat tortmay rohat tongi otmas bo ‘lur.

* * *

*Tunlar qotib, mehnat tortib, rohat ko ‘rgil,
Mehnat tortmay sango lutfi a ’losi yo ‘q.*

* * *

*Tunlar qotib, mehnat tortib, rohat ko ‘rgil,
Mehnat tortmay sango lutfi a ’losi yo ‘q.*

* * *

Ahmad Yassaviyning adolatparvarlik haqida qarashlari ikki xil mohiyat kasb etadi. Birinchisi, bandalar o‘rtasidagi munosabatlarda adolat ustuvorligini Allohning hukmi deb bilsa, ikkinchisi u dunyodagi hisobda Alloh o‘ziga adolati bilan emas fazli bilan munosabat bildirishini xohlaydi. Bu ham tasavvuf ahlining oriflariga mos jihat bo‘lib har qanday amallarni haqir sanashdan kelib chiqadi. Tasavvuf amallarning kuchlirog‘ini tutgani uchun ularda quyidagicha qoida bor:

حسنات الأبرار سيدات المقربين

² [MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “RABI’ AL-ABROR” ASARIDA IJTIMOIY, AXLOQIY VA FALSAFIY MASALALAR TALQINI \(cyberleninka.ru\)](#)

Ya’ni, yaxshi kishilarning yaxshiligi Allohning yaqin bandalari nazdida yomonlikdek ko‘rinadi. Bu qilingan amalning yanada takomiliga yetkazish va har qancha komil bo‘lsada uni notugal deb hisoblanishidir. “Devoni hikmat”da vatanparvarlik ikki nisbatdan baholanadi. Avvali asl vatan-jannah, majoziy vatan esa qo‘nim topgan makon hisoblanadi. Vatanparvarlik ruhi asarda tarki dunyochilik bilan xarakterlanadi. Bunga misol:

* * *

*Eldin qochib tog ‘u cho ‘lni qilg ‘oy vatan,
Cho ‘llar aro hamrohlari zog ‘u zag ‘an.*

* *

Yuqoridagi misralarda Ahmad Yassaviy inson haqiqatni topishi uchun odamlardan uzoqroqqa ketishni iroda qilishi lozimligi tavsiya qilinadi. Shuningdek bu masala tariqat keng yoyilgan o‘lkaning cho‘l hudud ekanligiga ko‘rsatkich o‘laroq, ikkinchi misrada cho‘llar aro kezish va bunda uning asosiy hamrohi insonlar bo‘lmasligini ta’kidlaydi. “Hikmatlar devoni”ning yana bir misrasida esa vatan deb jannahga ishora qilinadi:

* * *

*Ayo do ‘stlar, ketmak uchun munda kelduk,
Kelib ketmak boisini bildingizmu?
Asli vatan uldur, munda musofirsan,
Savdo uchun kelib savdo qildingizmu?*

* * *

Shu to‘rtlikning uchinchi misrada insonning asl vatani u dunyoda ekanligi, bu hayotga esa faqat ketish uchun kelganligini zikr etadi. “Devonda”gi erkparvarlik nafsning qilmishidan ozod bo‘lish bilan birga vasf qilinadi. Nafsdan qutulish uchun esa ulug‘ ruhiy tarbiya ustozlar xizmatida bo‘lish kerakligini tavsiya qiladi. Bunga doir quyidagi baytlar kelgan:

* * *

Eranlarning xizmatida bo‘lsang mudom,

Ozod qilsa, dorus-salom borur, do‘stlar.

* * *

Bundagi ma’no ustozlar orqali dorus-salom ya’ni omonlik diyori-jannatga erishish mumkinligi aytiladi.

Xulosa.

Birinchidan, Xoja Ahmad Yassaviyining axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda insonlarning munosabatlarida o‘zaro mehr-oqibat, halollik, bag‘rikenglik kabi sifatlarni gavdalantirish mumkin.

Ikkinchidan, Ahmad Yassaviyning ijod qamrovi juda keng bo‘lib axloqiy tamoyillar bilan bir qatorda axloqiy kategoriylar va mezonlar uchun ham muhim manba vazifasini bajara oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”. T.: “Movarounnahr”, 2004
2. Ahmad Yassaviy tariqati: Zikr masalasi va zokir maqomi. Abdullayeva Nilufar Ibragim Qizi
3. Mahmud zamaxshariyning “Rabi’ al-abror” asarida ijtimoiy, axloqiy va falsafiy masalalar talqini

Internet saytlari:

1. www.ziyo.uz
2. www.cyberleninka.uz